

JAMIYATNI AXBOROTLASHTIRISHDA FUQAROLARNING AXBOROT-PSIXOLOGIK XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MASALALARI HAQIDA

A.Kamolov

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filiali

Annotatsiya: Insoniyatning axborotga, uni olish, foydalanish va tarqatishga bo'lgan yehtiyoji mislsiz sur'atlarda ortib boryapti. Davlat boshqaruv tizimini yanada takomillshtirish, mamlakat iqtisodiyoti taroqlari va sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini, "elektron hukumat" tizimi hamda axborot tizimlarini jadal tadbiiq yetish bugungi kunning asosiy talablaridan biridir. Maqolada jamiyatni axborotlashtirishda fuqarolarning axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlash masalalari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: davlat boshqaruvi, axborot-psixologik xavfsizligi, elektron hukumat, texnologiya

ON THE ISSUES OF ENSURING INFORMATION AND PSYCHOLOGICAL SECURITY OF CITIZENS IN PUBLIC INFORMATION

A.Kamolov

Fergana regional branch of Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

Abstract: Humanity's need for information, its acquisition, use and distribution is growing at an unprecedented rate. Further improvement of the state management system, rapid implementation of modern information technologies and communications, "electronic government" system and information systems in all areas and sectors of the country's economy is one of the main demands of today. The article talks about the issues of ensuring the information and psychological security of citizens in informing the society.

Keywords: state administration, information and psychological security, electronic government, technology

Insoniyatning axborotga, uni olish, foydalanish va tarqatishga bo'lgan yehtiyoji mislsiz sur'atlarda ortib boryapti. Davlat boshqaruv tizimini yanada takomillshtirish, mamlakat iqtisodiyoti taroqlari va sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini, "yelektron hukumat" tizimi hamda axborot tizimlarini jadal tadbiiq yetish bugungi kunning asosiy talablaridan biridir. Bu borada 2015-yil 4-fevralda "O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligini tashkil yetish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi

Prezidentning farmoni qabul qilinib matbuotda e'lon qilindi. Ma'lumki, axborotga nisbatan talab qanchalik kuchaysa, uni tarqatuvchilar ham mos ravishda ko'payadi. Xo'sh, tarqatilayotgan axborotlar uni talab qilayotgan shaxslarning manfaatlariga mos kelyaptimi? Shaxs, jamiyat, davlatning axborot xavfsizligiga tahdidlar bo'lsa, uni oldini olish, undan muhofazalanish mumkinmi? Bu kabi savollar globallashuv jarayoni sharoitida yeng muhim masalalardan biriga aylanib bormoqda. Ularni to'g'ri hal yetish uchun yesa axborot xavfsizligi tushunchasini anglab olish va axborot xavfsizligini har tomonlama ta'minlash, xususan, huquqiy ta'minlash yo'llarini izlash lozim. Axborot xavfsizligini oddiy qilib tushuntiradigan bo'lsak, bu axborot munosabatlari subyektlarining manfaatlarini muhofazasi deyish mumkin.

Tahdid - xavfsizlikni muayyan ravishda buzishga qaratilgan harakat. U oshkora yoki yashirin bo'lishi mumkin. XXI asrga kelib axborot hurujining psixologik huruj sifatida namoyon bo'lishi kuchaymoqda. Shuni yodda tutish joizki, axborot-psixologik xavfsizlik tushunchasi bevosita inson va jamiyat, shaxs va uning dahlsizligi, tarixiy va madaniy meroslarni asrash bilan bog'liq tushuncha hisoblanadi. Insonlar ongi va ruhiyatiga ta'sir o'tkazishning zamonaviy usullari axborot orqali amalga oshiriladi. Axborot orqali ta'sir radio, televidenie, matbuot, internet kabi vositalar yordamida uzatilishi mumkin, bular orasida televidenie yeng ta'sirchan vosita hisoblanadi. Internetning ta'sirchanligi yesa, uning adadi cheksizligi, butun dunyo bo'yicha tarqalgani, matbuot, radio va televideniya xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgani, o'ta tezkorligi bilan izohlanadi.

Texnika va texnologiya mana shunday yuqori darajada rivojlangan globallashuv jarayonida axborot-psixologik xavfsizlikka tahdidlar qanday manbalardan keladi? Uning manbalarini qanday aniqlash mumkin? Hozirda ilmiy-o'quv adabiyotlarida axborot-psixologik xavfsizlikka tahdidlarning va tahdid manbalarining tugal tasnifi mavjud yemas. Bu yesa muammoning yangiligi va murakkabligi bilan izohlanadi. Shaxsga nisbatan axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashda tahdidni ikki guruhga - tashqi va ichki tahdidlar guruhlariga bo'lish mumkin.

Shaxs axborot-psixologik xavfsizligi tashqi tahdidlarining umumiy manbasi bu insonlarni chalg'itish, o'zini va yon atrofidagilarni aynan bir xilda qabul qilish imkonini bermaydigan axborotlardan iboratdir. Bu axborotlar ommaviy axborot vositalari (axborot tizimlari, masalan, internet va b.), adabiyot (badiiy, ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy-siyosiy, maxsus va b.), san'at (ommaviy madaniyatning turli yo'nalishlari), ta'lim (maktabgacha, o'rta-maxsus, oliy ta'lim va b.), tarbiya (jamoat tashkilotlari (rasmiy, norasmiy va ta'lim tizimidagi tarbiyaning barcha shakllari) hamda shaxsiy muloqot orqali kelishi mumkin.

Tashqi manbalardan keluvchi axborotlarning hammasi ham insonlarni chalg'itishga, ularni adashtirishga qaratilmaydi. Ishonchli, oddiy, tushunarli axborotlar bilan bir qatorda yashirin ravishda shaxs axborot-psixologik xavfsizligiga tahdid

qiluvchi ma'lumotlar ham kelishi mumkin, ularni ajrata bilish yesa shaxsning individual qobiliyatiga bog'liq.

O'z individual-psixologik xususiyatlari va ruhiyat faoliyatining umumiy tasnifi va qonuniyatlarini bilish hozirgi vaqtda inson uchun nafaqat zarurat, balki ijtimoiy o'zaro aloqada, turli shaxslararo bo'ladigan vaziyatlarda xavfsizlikning yeng muhim sharti bo'lib qolayotir.

O'zbekiston Respublikasida axborot olish, undan foydalanish, tarqatishni tartibga soluvchi qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, bular "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida", "Axborot erkinligi prinsplari va kafolatlari to'g'risida", "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonunlardir.

"Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonunga binoan axborotlashtirish - yuridik va jismoniy shaxslarning axborotga bo'lgan yehtiyojlarini qondirish uchun axborot resurslari, axborot texnologiyalari hamda axborot tizimlaridan foydalangan holda sharoit yaratishning tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy jarayonidan iborat. "Axborot erkinligi prinsplari va kafolatlari to'g'risida"gi Qonunga ko'ra axborot deganda manbalari va taqdim yetilish shaklidan qat'iy nazar shaxslar, narsalar, faktlar, voqealar, hodisalar va jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlar tushuniladi. Axborot olish faqat qonunga asosan hamda inson huquq va erkinliklari, konstitusiyaviy tuzum asoslari, jamiyatning axloqiy qadriyatlarini, mamlakatning ma'naviy, madaniy va ilmiy salohiyatini muhofaza qilish, xavfsizligini ta'minlash maqsadida cheklanishi mumkin. "Axborot erkinligi prinsplari va kafolatlari to'g'risida"gi Qonunda axborot erkinligining prinsplari sifatida ochiqlik va oshkoralik, hamma erkin foydalanishi mumkinligi va haqqoniylik ko'rsatilgan. Albatta, ommaviy axborot barcha fuqarolar uchun ochiq va undan foydalanishga hech qanday to'siq yo'q. Lekin masala ushbu axborotdan qanday maqsadda va qay yo'sinda foydalanishga bog'liq. Masalan, tadqiqotchi olim turli axborotlarni o'rganib, o'z bilimi va malakasini oshirishi, turli sohalarga yangiliklar kiritishi, muammolarni hal yetishi mumkin. Ammo uning mana shu faoliyati shaxs, jamiyat, davlat manfaatlariga tahdid qilmasligi, ziyon keltirmasligi lozim.

Ushbu qonunda yana jamiyatning axborot borasidagi xavfsizligiga yerishishning quyidagi yo'llari ham ko'rsatib o'tilgan:

- demokratik fuqarolik jamiyati asoslari rivojlantirilishini, ommaviy axborot erkinligini ta'minlash;
- qonunga xilof ravishda ijtimoiy ongga axborot vositasida ruhiy ta'sir ko'rsatishga, uni chalg'itishga yo'l qo'yimaslik;
- jamiyatning ma'naviy, madaniy va tarixiy boyliklarini, mamlakatning ilmiy va ilmiy-texnikaviy salohiyatini asrash hamda rivojlantirish;

- milliy o'zlikni anglashni izdan chiqarishga, jamiyatni tarixiy va milliy an'analar hamda urf-odatlardan uzoqlashtirishga, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni buzishga

Bundan tashqari yuqorida aytib o'tilgan "O'zbekiston Respublikasi axborot ztexnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligini tashkil yetish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonida hamaxborot xavfsizligini ta'minlash va kommunikatsiya tarmoqlari, dasturiy mahsulotlar, axborot tizimlari va resurslarini himoya qilishning zamonaviy texnologiyalarini tadbiq yetish chora-tadbirlarini amalga oshirish, axborot resurslarini himoya qilish bo'yicha texnik infratuzilmani yanada rivojlantirish masalasi dolzarb masala sifatida ko'rsatib o'tilgan.

Axborotlashtirish jarayonining tezkorligi sharoitida fuqarolarning axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlash, psixologik tahdidlarning oldini olish, ta'sirini kamaytirish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

Psixologik tayyorgarlik. Avvalo, shaxs o'zining psixologik xavfsizligini ta'minlashi lozim. Buning uchun yesa u o'z individual xususiyatlarini yaxshi bilishi, dunyoqarashi keng shakllangan bo'lishi, atrofda sodir bo'layotgan turli voqeahodisalarga munosabat bildira oladigan darajaga yetishishi lozim.

Ta'lim va tarbiya. Yuqoridagi holatni ta'minlash uchun yesa ta'lim va tarbiya jarayoniga katta e'tibor bergan holda yoshlarga mana shunday axborot hurujlariga qarshi tura oladigan, tahdidlarga o'z munosabatini bildirish kuchiga yega qilib ta'lim berilishi va yoshlar shu ruhda tarbiyalanishi, umumiy, o'rta maxsus va oliy ta'lim bosqichlarida axborot-psixologik xavfsizlik bo'yicha bilimlar berilishi kerak.

Ommaviy axborot vositalari. Bugungi kunga kelib OAV juda katta kuchga aylandi. Uning axborot uzatish, qabul qilish imkoniyatlari XX-asrning oxirlariga nisbatan ancha kengaydi. OAVlari orqali mamlakatimizga, aholiga ham ijobiy, ham salbiy axborotlar yetib kelishi mumkin. Yuqoridagi ikki holatni mustahkamlash, yurtimizga bo'ladigan turli axborot hurujlarini kamaytirish, uning oldini olish uchun yesa avvalo o'z milliy OAVmizni yanada rivojlantirishimiz lozim. Yeng muhimi va yuqoridagi barcha holatlarda asosiy o'rin tutadigan masala - bu milliy istiqlol g'oyasidir. Milliy istiqlol g'oyasini aholi ongiga singdirish, yoshlarni yesa mana shunday g'oyalar ruhida tarbiyalash axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan barcha chora-tadbirlarining samarali amalga oshirilishiga ko'maklashuvchi milliy kuchdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yuldasheva, S. (2023). The Experience of Learning to Read from Foreign Countries. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 3(10), 42-46.

2. Yo‘Ldasheva, S. (2023). BIBLIOGRAFIYANING FAOLIYAT SOHASI SIFATIDA PAYDO BO ‘LISHI VA RIVOJLANISHI. *Oriental Art and Culture*, 4(6), 540-544.
3. Asqarova, M. (2023). HOMIL YOQUBOV TADQIQIDA NAVOIY IJODI. *World of Philology*, 2(1), 27-30.
4. Asqarova, M. (2022). ADABIY TANQIDDA UMUMLASHTIRUVCHI TADQIQOTLARNING AHAMIYATI. *Oriental Art and Culture*, 3(4), 527-531.
5. O‘G‘Li, I. T. L. (2022). SOVET ITTIFOQINING SOLIQ-BOJXONA TIZIMIGA BO‘LGAN MUNOSABATI. *Oriental Art and Culture*, 3(3), 125-128.
6. Habibjonov, I. (2023, May). THE ELEMENTS OF GENEROSITY ARE APPEARED IN ALISHER NAVOY’S CREATION. In *International Conference on Research Identity, Value and Ethics* (pp. 124-127).
7. Tuychiyeva, S., Yuldosheva, S., Tuychiyeva, D., Xolmatov, R., & Zokirov, M. (2023). Innovative activity of libraries in Uzbekistan. *Journal of Advanced Zoology*, 44(S2), 4261-4266.
8. Tuychieva, S. N. (2023). Formation of Information-Library Fund. *INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION*, 2(2), 22-24.
9. Mirzayeva, N. (2023). ALISHER NAVOIY “SADDI ISKANDARIY” DOSTONIDAGI MUG ‘ANNIYNOMALARNING MATNIY STRUKTURASI. *Oriental Art and Culture*, 4(3), 232-239.
10. Mirzayeva, N. (2023). ALISHER NAVOIYNING “XAZOYIN-UL MAONIY” ASARIDA MUG ‘ANNIYLAR TALQINI. *World of Philology*, 1(2), 72-76.
11. To‘Ychiyeva, D. (2023). AXBOROT-KUTUBXONA MUASSASALARIDA REKLAMANING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING TURLARI. *Oriental Art and Culture*, 4(1), 802-807.
12. To‘Ychiyeva, D. (2022). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA KITOBAT SAN’ATI VA KUTUBXONALAR. *Oriental Art and Culture*, 3(2), 290-297.
13. Kamolov, A. (2022). INFORMATIKA O ‘QITISH METODIKASI YO ‘NALISHI BO ‘YICHA BAKALAVR-O ‘QITUVCHILARNI TAYYORLASHDA MUSTAQIL TA’LIMNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI. *Oriental Art and Culture*, 3(4), 755-759.
14. Kamolov, A. (2024). Psychology of Internet Safety-Environment: Youth in Social Networks. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(1), 42-44.
15. Kamolov, A., & Ibragimov, S. (2023, July). SOME METHODS AND TOOLS FOR USING INFORMATION COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN LEARNING FOREIGN LANGUAGES. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 146-148).